



ASSOTSIATIV LUG‘ATLARNING O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Nasirov Muslimjon Maxsutali o‘g‘li,

*Qo‘qon DU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada assotsiativ lug‘atlarning nazariy asoslari, ularning tilshunoslikdagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Xususan, o‘zbek tilshunosligida yaratilgan assotsiativ lug‘atlar, jumladan milliy-madaniy birliklar hamda bolalar nutqiga asoslangan lug‘atlarning tuzilishi, tajriba o‘tkazish usullari va natijalari tahlil qilinadi. Assotsiativ tajribalar orqali til egalarining lingvistik ongi, leksik xotirasi, dunyoqarashi hamda turli ijtimoiy va yosh guruhlar nutqidagi farqlarni aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: assotsiativ lug‘at, psixolingvistika, lingvistik ong, leksik xotira, stimul so‘z, javob reaksiyasi, assotsiativ tajriba, bolalar nutqi, milliy-madaniy birliklar, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, o‘zbek tilshunosligi.

Hammamizga ma’lumki, lingvistik lug‘atlar tilshunoslik uchun muhim manba vazifasini o‘taydi. Ularda bir tilga xos alohida xususiyatlar, tilning o‘ziga xos jihatlari aksini topadi. Lug‘atlarda muayyan tilning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning unga ta’siri ham o‘z aksini topib boradi. O‘zbek tiliga xos turli tipdagi lingvistik lug‘atlarni yaratish, ulardagi ma’lumotlar bazasini zamonaviy tilshunoslikning nazariy qarashlari asosida shakllantirib boorish bugungi kun leksikografiyasi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Jahon tilshunosligida assotsiativ lug‘atlarni yaratish lug‘atshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi. Assotsiativ lug‘at psixolingvistik taraqqiyotni o‘zida saqllovchi yangi tipdagi lug‘at sanaladi. Ushbu lug‘at til egasining lisoniy ongi, dunyoqarashi, tasavvuri, so‘z boyligini o‘zida aks ettiradi. Bu tipdagi lug‘atlarni tahlil qilish orqali til egalarining lisoniy xotirasida assotsiativ tarzda bir-birini yodga soluvchi leksik birliklarning leksik-semantik, sotsiolingvistik, pragmalingvistik, genderologik xususiyatlari haqida ma’lumot olish mumkin. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, assotsiativ lug‘atlar, avvalo, lug‘atdan ko‘zlangan maqsad va unda amalga oshiriladigan vazifalarga ko‘ra boshqa turdagi lingvistik lug‘atlardan keskin farq qiladi. Bu tipdagi lug‘atlar muayyan tilning lugat tarkibini tekshirish, til egalarining leksik zahirasi, xotirasi haqida

ma'lumotga ega bo'lish, olam haqidagi tasavvurlari, bilimining tilda aks etishi masalasini o'rganish, tilni me'yorlashtirish kabi maqsadlarni ko'zda tutadi [8].

Assotsiativ lug'at tuzish uchun eng avvalo, ma'lum miqdordagi til egalari nutqi ustida assotsiativ tajriba o'tkaziladi. Tajriba davomida yig'ilgan materiallar elektron holatga keltirilib, har bir stimul so'zning assotsiativ maydoni tuziladi. Javob reaksiyalarining statistik tahlili asosida ularning umumiy miqdori, qo'llanilish chastotasi, turli javob reaksiyalari, yakka qo'llangan javob reaksiyalari hamda javob berilmagan holatlar aniqlanadi. Lug'at maqolasida stimul so'zlarga berilgan javob reaksiyalari har bir stimul so'zning qarshisiga stimul so'z – javob reaksiyasi tartibida qayd etiladi. Javob reaksiyalarini qayd etishda ularning qo'llanilish chastotasiga ko'ra kamayib borishiga e'tibor qaratiladi. Reaksiyalardan so'ng qavs ichida 1) ularning umumiy miqdori; 2) turli javob reaksiyalari miqdori; 3) takror javob reaksiyalari miqdori; 4) yakka qo'llangan javob reaksiyalari miqdori; 5) javob berilmagan holatlar miqdori keltiriladi [8].

O'zbek tilshunosligidagi ilk assotsiativ lug'at professor D.Lutfullayeva, R.Davlatova, B.Tojiboyevlar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar)" lug'at bo'lib, ushbu lug'at milliy-madaniy stimul birliklar asosida o'tkazilgan tajriba materiallariga asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu lug'at 2019-yilda nashr etilgan bo'lib, undan 100 ta stimul soz va ular bilan assotsiativ aloqada bo'lgan 42645 ta javob reaksiyasi o'rin olgan. Lug'atning ahamiyatli jihati shundaki, unda stimul so'z sifatida milliy-madaniy birliklar tanlangan. Ushbu assotsiativ lug'atni yaratishda bog'li assotsiativ tajriba usulidan foydalanilgan. Lug'at ishi bir necha bosqichni o'z ichiga olgan bo'lib, sinaluvchilar nutqi ustida o'tkazilgan assotsiativ tajribalar 2016-2019-yillarda Toshkent va Navoiy shaharlarida yozma ravishda amalga oshirilgan. Tajribalarda jami 273 nafar O'zbekistonda yashovchi va o'zbek tilida so'zlashuvchi, 18 yoshdan kichik bo'lmagan respondentlar ishtirok etgan. Hozirgi kunda ushbu lugat o'zbek tilshunosligida antroposentrik yo'nalishlar bo'yicha yaratilgan mukammal lug'atlardan biri sanaladi. Lug'atning ichki tuzilishi so'zboshi, lug'at maqolasidan tashkil topib, so'zboshi qismida lug'atga umumiy tavsif berilgan. Uning tuzilishi, amalga oshirilgan ishlar, o'tkazilgan tajriba turi, lug'atning amaliy ahamiyati haqida so'z boradi [5].

O'zbek tilida yaratilgan yana bir assotsiativ lug'at bu Qurbonova Munavvara Mirnosirova Dilbar muallifligidagi "Bolalar assotsiativ lug'ati" [8] hisoblanadi. Mazkur lug'at o'zbek tilshunosligidagi bolalar nutqi tadqiqiga assotsiativ yondashuv asosida yaratilgan ilk lug'at hisoblanadi. Lug'at stimul so'z — javob reaksiyasi tipida



yaratilgan bo‘lib, unda 100 ta stimul so‘z bo‘yicha maktabgacha yoshdagi (3 yoshdan 7 yoshgacha) bolalar lisoniy xotirasida tiklangan 18000 dan ortiq javob reaksiyasi (assotsiatsiyalar) o‘rin olgan. “Bolalar assotsiativ lug‘ati” 200 nafar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida o‘tkazilgan og‘zaki assotsiativ tajriba materiallari negizida yaratildi. Ushbu lug‘at bolalar nutqini psixolingvistik, sociolingvistik, lingvopragmatik, genderologik, lingvokulturologik, assotsiativ tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda tayanch manba vazifasini o‘tashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

M.Qurbonova va D.Mirnosirova muallifligidagi “Bolalar assotsiativ lug‘ati” jahon tilshunosligidagi an‘anaviy tajriba turi sanaluvchi erkin assotsiativ tajriba metodi asosida tuzilgan bo‘lib, erkin assotsiativ tajriba maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida og‘zaki tarzda olib borildi. Tajriba uchun, asosan, Toshkent shahar shevasi hamda ikki shevalilik muhitiga mansub (Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahar shevasi, Andijon viloyati va Toshkent shahar shevasi) maktabgacha yoshdagi (3 yoshdan 7 yoshgacha) 200 nafar sinaluvchi jalb etilgan. Stimul so‘z sifatida o‘zbek tilida faol qo‘llaniluvchi, bola tomonidan idrok etilishi darajasiga mosligi, semantik xususiyatlari, mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lishi inobatga olingan 100 ta so‘z tanlab olingan. Lug‘atda stimul so‘z sifatida semantik jihatdan zamonaviy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar (internet, telefon, kompyuter, pitsa), tur-jins (gul, daraxt, qush), qism-bo‘lak (odam, bozor) munosabatidagi so‘zlar, diniy mavzudagi leksik birliklar (duo, jannat, gunoh, hayit) hamda milliy-madaniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar (alla, beshik, sumalak, navro‘z, do‘ppi) tanlangan. Sinonimik qatordagi so‘zlarni tanlashda bola nutqida faol qo‘llanish darajasiga alohida e‘tibor qaratilgan, omonim so‘zlar esa asl shaklida (izoh berilmasdan) keltirilgan. Bundan omonim so‘z yodga olinganda bola lisoniy xotirasida dastlab uning qaysi ma‘nosi tiklanishi, omonim so‘zlarning bolalar nutqida qo‘llanilish darajasi, omonimik munosabatdagi so‘zlarning verbal assotsiatsiyalar hosil qilishdagi o‘rni va miqdorini aniqlashdan maqsadi ko‘zlangan. Shevaga oid birliklar stimul so‘z sifatida olinmagan. Lug‘atning kirish qismida 100 ta stimul so‘zlarning alifbo tartibidagi ro‘yxati berilgan.

Shu o‘rinda bolalar va yoshlarning olam haqidagi tasavvurlarini o‘zaro qiyoslash maqsadida biz ham oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida erkin assotsiativ tajriba o‘tkazdik. Ushbu assotsiativ tajribada Samarqand davlat chet tillari va Qo‘qon davlat pedagogika institutida turli kurslarda tahsil olayotgan 134 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Oradagi masofani inobatga olgan holda ularga “google drive” platformasi orqali assotsiativ tajriba anketasi jo‘natildi. Ushbu tajribada hozirgi kunda oliy ta’lim tizimi



va talabalar nutqida ancha faol ishlatiladigan va tizimga kirib kelganiga uncha uzoq bo'lmagan 10 ta stimuly so'z tanlandi. Bular: Institut, dars, baho, kursdosh, kredit, yotoqxona, sillabus, hemis, tyutor, sessiya. "Dars" stilmuliga berilgan talabalar reaksiyasi va "O'zbek bolalar assotsiativ lug'ati"da keltirilgan "dars" so'zining javob reaksiyalari strukturasini qiyoslaydigan bo'lsak, bir qancha qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

"O'zbek bolalar assotsiativ lug'ati"da "Dars" so'zining assotsiativ lug'ati quyidagicha keltirilgan:

Dars: dars qiladi 14; o'qiydi 11; yozadi 10; kitob 9; maktab 7; dars qilish 6; dars qilaman 5; daftar 4; ustoz 4; dars qilamiz 3; dars o'tadi 3; ruchka 3; yozish 3; "darsda akalar dars qiladi" 2; dars emas 2; dars qiladigan 2; narsa chizadi 2; qalam 2; yozadigan 2; yozamiz 2; o'qish 2; o'qish uchun 2; chizadi 2; aqlli narsa, ish qiladi, kir yuvadi, narsalarni yozish, kitob o'qish, dars tayyorlaydi, "gaplashma, yoz degani", "opam dars qiladi", "dars qilsa, kuchi ko'payadi", rotik, o'quv qurollari, dars o'tamiz, "bolalar, dars o'tamiz", dars qilaman, o'quvchilar, o'qish, yozasiz, "10 soni bilan boshlanadi", books, narsalar o'rgatadi, yozuv qiladi, "bolalar dars qiladi", odobli, odam, o'tadigan, chizish, "hozir qilayotgan darsimiz", maktab darsi, a'lo, so'z, "maktabda narsa yozadi", yozuv, darsda yozishadi, qiladi, darsda chizadi, o'taman, maktabda o'qadi, "kottalar dars qiladi", maktabda, odamlar qiladi, chizamiz, "darsda ko'p narsalar o'rganib keladi", darsda o'qiydi, baklajka, "manam dars qilaman uyda", amaki, maktabda, bog'chada bo'ladi, uyda bo'ladi, ruchka bilan yozadi, bitta dars, bitiruv, o'qituvchi, qorbobo, o'quvchi, yaxshi, darsda o'qiydi maktabda, aqlli bo'lish, "man maktabga boraman, keyin dars qilaman", o'qadi, matematika, o'qish uchun kerak, "darsda doska bor", a'lochi bo'ladi, "5 bahoga o'qish uchun dars qilish kerak", bo'yaydi, "dars qilib turish kerak", "dars qilishni, maktabga chiqishni istiyman", tayyorlash, jim o'tir, "maktabda o'tirib, alifbo chizadi", xo'jayin, bog'cha, "o'qiydi, kotta bo'lsa keyin biznesmen bo'ladi", dars qilasan, dars berish, kitob o'qiydi, "qalamlarni yoyib olib, ruchkalarni olib yozib o'tiradi jimgina", darsini qiladi, "bog'chada dars qilamiz", 5 olish uchun narsalar chizish, bolalar, maza qilib dars qilish, "darsda harflarni o'qadi", daftarda chizadi, aqlini ishlatish uchun, "katta bolalar darsda yozadi", mashg'ulot o'tish, "maktab bolalari boradi-de, o'quvchilarga salom berib, keyin yozishadi", darsni eshitadi, "bola darsda yomonlashdi" 1; (194+116+23+92+6) [8].

Talabalar bilan o'tkazilgan erkin assotsiativ tajriba natijalarini tahlil qilganimizdan so'ng "dars" so'zi uchun quyidagicha assotsiativ lug'at shakllanishi mumkinligini kuzatdik:



Yozma tarjima 19; Zerikarli 7; Kitob 6; Termin va matnlar tarjimasi 4; Written translation 4; Jarayon 4; Yaxshi 4; Muqaddas 4; Bilim olish jarayoni 2; Bilim 2; Bilim olish 2; Uyqu 2; Mashgʻulot 2; Ogʻzaki nutq amaliyoti 2; Maʼruza 2; Falsafa 2; “Independent study”, “Surfing internet 😊”, Lesson, “Reading writing”, Erta turish, Oʻrganish, Erinish, Oʻqish, “Tushlik vaqtini oʻylash”, Nimadir oʻrganish, Ilm, “Ilm ololsang yaxshi vaqt”, Ilm oʻrganish, Ilm olish, Ilm bozori, Ilm olishimiz, Ilm oladigan jarayon, Yangi bilim, Oʻrganilayotgan bilim, “Olish olmaslikni oʻzing hal qilishing mumkin boʻlgan bilim”, Kerakli bilimlar, “Bilimlar namoyish etiladigan jarayon”, “Oʻrganayotgan bilimlarimizni mustahkamlashga anchagina yordam beruvchi usuldek gap ekan”, “80 minut zerikish”, 80 minut, “80 minutlik sabr va yangi bilimlar”, “Maʼlumotlar alishamiz”, Bahs-munozara, Qoniqarli, Qiziq, Tarix, Matematika, Tilshunoslik, Hozirgi oʻzbek adabiy tili, Qoʻqon adabiy muhiti, Mamlakatshunoslik, Sinxron tarjima, Qiyosiy tipologiya, Bekorga vaqt olish, Keraksiz fanlar koʻp, “Darsga qiziqish-qiziqmasligimiz domlaga bogʻliq”, 2 paradan, 2, Ketma-ket, Topshiriq, Stress, Davomat, taʼlim, Baho, doska, Koʻplab vazifalar, Yangi kashfiyotlar, Kelajakning poydevori, Maʼlum qoidalar jamlanmasi, “Darslani haliyam tushunmayabman, mavzular yetib kelmayabdi”, Muhim jarayon, Muqaddas jarayon, Taʼlim jarayoni, Sifatli talim jarayoni, “Biror yangi narsa oʻrganish ehtimoli boʻlgan jarayon”, Zeboxon Qobilova, Saidakbarova, Oʻqituvchilar tomonidan beriladigan maʼlumotlar, Oʻqituvchi va oʻquvchilar 1.

Oʻzbek tilida yaratilgan assotsiativ lugʻatlarning yana biri sifatida N.Xoshimovanning “Oʻzbek tilida assotsiativ munosabatlar” mavzusidagi filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasining oxiriga ilova qilingan “Sanʼat” leksemasning assotsiativ lugʻati”ni keltirishimiz mumkin [7]. Ushbu ilova-lugʻatda **zanjirli assotsiativ tajriba** usuli orqali yaratilgan boʻlib, unda “sanʼat” leksemasi atrofida assotsiativ munosabat asosida birlashadigan 153 ta leksik birlikning statistik tahlili berilgan. Ushbu lugʻatda keltirilgan “sanʼat” arxisemali leksik birliklar quyidagilar:

Akrobat, akrobatika, aktyor, aktrisa, aktyorlik, alabastr, alifmoy, alt, ansambl, arbob, arka, artist, arfa, asbob, asar, atletika, afisha, ashula, ashulachi; badiiy, badiiyot, bayt, balet, balerina, baletchi, baletmeyster, baland, bariton, bastakor, bastalamoq, bezatmoq, beletaj, bino, boshlovchi, boʻyoq; videofilm, violonchel, vokal, vokalchi, voqeiy, voqea; galereya, ganch, gasht, gid, gips, gravyura, grafika, grim; dorbozlik, dor, dorboz, doston, drama, dramaturgiya, dublyaj, dutor, dutorchi, duradgor, doʻmbira, doʻmbirachi; yozuvchi; joʻr; ijod, ijodiyot, ijodiy, ijodkor, ijodkorlik, ijod qilmoq, ijro;



komediya, kurash, ko'zbog'lovchi; lazgi, latifa, latifaboz; manzara, masxaraboz, masxarabozlik, mashshoq, me'mor, me'morchilik, miniatyura, molbert, muallaqchi, muzey, mumtoz, musiqa; naqsh, naqqoshlik; opera, operator, orkestr; peyzaj, portret; rassom, rassomlik, rasm, raqs, raqqosa, rejissor, rol; san'at, san'atshunoslik, san'atkor, sahna, simboz, skripka, soz, sozanda, spektakl, surnay, surat, suhandon; tanovar, tasvir, tasvirlamoq, teatr, televizor, teletomoshabin, telequrilma, tomosha, tomoshabin, tragediya; uyg'unlik; xonanda; she'r, she'riy, she'riyat, she'rxonlik, shoir; film; sirk; chalmoq; chig'irich, cholg'u; ekran, etyut, eshitmoq; yakkanavoz; o'ynamoq, o'yin, o'yinchi; g'azal, g'ijjak; qalam, qo'shiq, qo'shiqchi, qo'g'irchoqbozlik; havaskor, haykal, haykaltarosh, hujjatli.

Xulosa qilib aytganda, assotsiativ lug'atlar zamonaviy tilshunoslikda til egasining lingvistik ongini, dunyoqarashini va leksik xotirasini o'rganishda muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat til birliklarining semantik va funksional xususiyatlarini, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar bilan uzviy bog'liqligini ham ochib beradi. O'zbek tilshunosligida yaratilgan assotsiativ lug'atlar, xususan milliy-madaniy birliklar va bolalar nutqiga asoslangan tadqiqotlar, tilning antropotsentrik yo'nalishda rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, turli yosh va ijtimoiy guruhlar nutqida yuzaga keladigan assotsiativ munosabatlarning qiyosiy tahlili tilni chuqurroq anglash, uni me'yorlashtirish va samarali o'rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лутфуллаева Д. Тожибоев Б. Ўзбек тили ассоциатив луғатини тузишнинг лексикографик тамойиллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – № 3. – Б. 85-91.
2. Лутфуллаева Д. Тожибоев Б. Ўзбек тилида миллий-маданий ассоциатив бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2018. – № 3. – Б. 58-62.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент: Мериус, 2017. – 139 б.
4. Шайхисламов, Н. (2021). Ўзбек тили ассоциатив луғатининг тузилиши тўғрисида мулоҳазалар. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(1), 20-25.
5. Lutfullayeva D., Davlatova R, Tojiboyev B. O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar). – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 380 b.
6. Qurbonova M., Mirnosirova D. Bolalar assotsiativ lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2022, – 162 b.



7. Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. – Тошкент, 2018. – Б.138.
1. [https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.hamroev.bolalarassotsia
tivlugati](https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.hamroev.bolalarassotsia tivlugati)